O‘ZBEK VA QORAQALPOQ ADABIY ALOQALARI: TARIXIY ILDIZLAR VA BADIIY TA’SIRLAR

Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna
Qoraqalpoq davlat universiteti
Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasi dotsenti (PhD)
tokimbetovag@gmail.com
+998 (90) 5938480

Annotatsiya
Mazkur maqolada o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlari o‘rtasidagi tarixiy-adabiy aloqalar, ularning shakllanish bosqichlari hamda o‘zaro badiiy ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, mumtoz va zamonaviy adabiyot namoyandalari ijodida kuzatiladigan mushtarakliklar, adabiy an’analar va milliy qadriyatlarning aks etishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *adabiy aloqalar, mumtoz adabiyot, adabiy ta’sir, milliy qadriyatlar, badiiy an’ana, falsafiy qarashlar.*

KIRISH

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari asrlar davomida yonma-yon yashab, o‘zaro iqtisodiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni rivojlantirib kelgan. Ushbu yaqinlik ikki xalq adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Adabiy aloqalar xalqlarning ma’naviy dunyosini boyitib, badiiy tafakkur rivojiga xizmat qilgan muhim omillardan biridir.

O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalar qadimiy tarixga ega. Ikki xalqning til, urf-odat va madaniyatidagi yaqinlik adabiyotda ham o‘z aksini topgan. Ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyoti an’analari har ikki xalq adabiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

XV–XVI asrlarda Alisher Navoiy ijodi turkiy xalqlar adabiy taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Navoiy asarlari qoraqalpoq shoirlari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan va ularga ijodiy ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uning insonparvarlik, adolat va ma’rifat g‘oyalari keyingi davr qoraqalpoq adabiyotida ham davom ettirilgan.

Mumtoz adabiyotdagi o‘zaro ta’sirlar XIX asr qoraqalpoq adabiyotining yirik vakillari Kunxo‘ja, Ajiniyoz va Berdaq ijodida o‘zbek mumtoz adabiyotining ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu holat, avvalo, mavzu tanlovi, obrazlar tizimi, she’riy shakllar va badiiy tasvir vositalarida namoyon bo‘ladi. Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li Buxoro va Xiva madrasalarida tahsil olgan bo‘lib, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Maxtumquli kabi mutafakkirlar ijodidan bahramand bo‘lgan. Uning she’riyatida Sharq mumtoz adabiyotiga xos badiiy an’analar va falsafiy qarashlar muhim o‘rin egallaydi. Berdaq ijodida ham xalqparvarlik, adolat va erkinlik g‘oyalari yetakchi mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar o‘zbek mumtoz adabiyoti bilan mushtaraklikni ko‘rsatadi.

Milliy, hududiy va jahon adabiyoti doimo o‘zaro aloqada rivojlangan holda bir-birini boyitadi. Jahonda biror adabiyot faqat o‘z qobig‘ida, o‘z adabiy an’analari doirasida rivojlanmaydi, balki boshqa adabiyotlarning ilg‘or tajribalariga tayangan holda o‘z taraqqiyotini belgilaydi[1]. Milliy adabiyot – har bir xalq madaniy hayotining

ajralmas qismi, muayyan millat, masalan, o‘zbek, rus, yapon xalqining adabiy merosi, she’riy va nasriy durdonalari, o‘lmas asarlaridir. Rus olimi B.G.Reizovning fikriga ko‘ra, milliy adabiyot ko‘plab adabiy va madaniy kuchlarning, tendensiya va imkoniyatlarning birlashuvidur [2].

G.Qurambayeva dissertatsiyasi o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlari o‘rtasidagi adabiy aloqalarni qiyosiy-adabiy hamda tarixiy yondashuv asosida kompleks tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ikki xalq adabiyotining shakllanish manbalari, umumiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilingan[3].

Qiyosiy adabiyotshunoslik yoki adabiy komparativistika ikki va undan ortiq adabiy hodisaning qiyoslanishiga asoslangan fan yo‘nalishidir. Xalqaro ijtimoiy, madaniy va adabiy aloqalar kundan kunga rivojlanayotgan zamonamizda qiyosiy adabiyotshunoslik kelajagi yorug‘ fan yo‘nalishlaridan biridir. Har qanday qiyosiy tadqiqotda adabiy hodisalarning mushtarak va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. Bu esa adabiyotlararo umumnazariy qonuniyatlarning yuzaga kelishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, qiyosiy adabiyotshunoslikda tipologik hodisalarni o‘rganish bilan bog‘liq asosiy tamoyillarni kompleks tahlil qilish yuzasidan ilmiy xulosalar umumiylashtiriladi[4].

X-XII asrlar turkiy adabiyotlar rivojlanishida ahamiyatli davr bo‘ldi. Bu davrda yozilgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Baxıtqa baslawshı bilim”), Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqıyqatlar sawǵası”), Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat” (“Diywanı hikmet”), Sulaymon Boqirg‘oniyning “Boqirg‘on kitobi” (“Baqırǵan kitabı”) asarlari o‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlarining umumiy yozma yodgorliklari qatorida o‘rganilgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari o‘zbek-qoraqalpoq adabiyotshunosligi uchun mushtarak genetik zahirani tashkil etadi.

Qoraqalpoq adabiyoti o‘zining tarixiy yo‘lida milliy xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot, shuningdek, Sharq va G‘arbning badiiy so‘zdagi ijodiy an’analari asosida shakllandi va taraqqiy etdi. Ayniqsa, qoraqalpoq poetik ijodining boshqa turkiy xalqlar adabiyoti bilan yaqinligi qoraqalpoqlarning xalq bo‘lib shakllanishi davridan boshlanadi[5]. Qoraqalpoq adabiyoti millatning ruhiy olamini aks ettiruvchi muhim ko‘zgudir. U nafaqat estetik did darajasini namoyon etadi, balki xalqning poetik so‘z haqidagi qarashlari va tasavvurlarini ham o‘zida mujassam etadi. K.Mambetov ta’kidlaganidek, turkiy xalqlarning boy madaniy merosi ularning tarixiy taqdiri va ildizlari mushtarakligidan dalolat beradi. Shuning uchun M.K.Nurmuhamedovning fikriga ko‘ra, qoraqalpoq xalqi boshqa turkiy xalqlar bilan bir qatorda qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning to‘laqonli merosxo‘ri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Q.Jarimbetov qoraqalpoq so‘z san’atining shakllanishi faqat XVI-XVIII asrlar bilan chegaralanmasligini, balki uning ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqalishini asoslaydi. Ya’ni, qoraqalpoq adabiyoti o‘z manbalarini qadimgi turkiy folklor va yozma adabiyot an’analaridan olgan holda shakllangan va rivojlangan.

Adabiyotshunos K.Quramboyev ta’kidlaganidek, adabiy aloqalar va ta’sir masalasi milliy adabiyotlar taraqqiyotini kafolatlaydigan omillardan biri ekani isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan. Jahonda biror adabiyot yo‘qki, faqat o‘z qobig‘ida, o‘z adabiyoti an’analari doirasida boshqa milliy adabiyotlarning ilg‘or

tajribalariga tayangan holda rivojlanib, o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan bo‘lsin[6].

Qoraqalpoq xalqining vujudga kelish davri turkiy xalqlar bilan aloqadorlikda kechdi. “Qoraqalpoq” atamasi IX asrdagi manbalarda qayd etilgani holda uning etnos sifatida shakllanish davri XIV-XV asrlarga to‘g‘ri keladi. Qoraqalpoqlar yarim ko‘chmanchi xalq bo‘lgani uchun adabiy merosi, ko‘pincha, og‘zaki ijod bilan aloqador. Shu bois uning qadimiy adabiyoti folklorga xos jirovlar maktabi asosida ijodkorlik yoki shoirlik, sozandalik va ijro qilish usuli *jirov* nomi bilan ma’lum bo‘lgan. Bu davrda xalq orasida og‘zaki ijod bilan shug‘ullangan So‘ppasli Supira jirov (XIV asr), Asan Qayg‘u, Jiyrenche (XV asr), Dospanbet (XVI asr), Muyten jirov (XVI asr), Jiyen jirov (XVIII asr)ning davr tarixi haqida so‘zlovchi jir (yir, ya’ni qo‘shiq) va to‘lg‘ov (qayg‘uli terma)lari mavjud. Ammo XIX asrda ijod qilgan Kunxo‘ja Ibrayim o‘g‘li ijodini qo‘shiq janridan boshlagan bo‘lsa, undan keyinroq yashagan Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li qo‘shiq bilan birgalikda g‘azal va muxammaslar yozgani ma’lum. Chunki qoraqalpoq adabiyotining dastlabki sarchashmasi XIV asrdan boshlangan, bu oraliqda ijod qilgan atoqli so‘z san’atkorlarining barchasi Alisher Navoiy dahosidan ta’lim olishgan.

Qoraqalpoq adabiyotining tutashgan to‘rt asrlik davri jirovlar ijodi bilan aloqadorlikda kechdi. Adabiyot tarixida “jir – turkiy adabiyot o‘zagi (sağası)” hisoblanadi. Haqiqatan ham jir va jirov haqidagi ma’lumotlar XV asr manbalarida, xususan, o‘zbek sheriyatida ham uchraydi. Masalan, “Gul va Navro‘z” dostonida:

Ey jirov, lafzingdi ko‘rgiz,
Qobiz bilan ulug‘ jirni tuz, –

deb yozishiga ko‘ra “jirov” so‘zi shoir darajasida bo‘lgan[7]. Chunki “Jir qobiz yordamida aytilgan”ligi manbalarda qayd etiladi. Qoraqalpoq adabiyotining dastlabki namunalaridagi bu an’ana o‘sha davrdagi dastlabki ifoda usuli hisoblanib, aksariyat turkiy xalqlarda mavjud edi. Bunga yaqin fikrlar Alisher Navoiy asarlarida ham uchraydi. Masalan, ulug‘ shoir o‘zining “Saddi Iskandariy” dostonida, asosan, qo‘biz taronasi haqidagi fikrini bayon qilgan bo‘lsa ham, uning asosi sifatida *jir* matniga e’tibor qaratadi[8]. Bu holni kuzatgan qoraqalpoq olimi K.Mambetovning “O‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari” kitobida Navoiydan iqtibos keltirib, uni qoraqalpoq olimlari uchun zarur manba bo‘lganini ta’kidlaydi:

Ey sazende, ullı jırdı dúzgeyseń,
Dúnyanı gúńiretken sestin sezgeyseń
(Mug‘anniy, ulug‘ yir sadosini tuz,
Bijir ko‘kka piypo sadosini tuz)

– yozib “jir”, “jirov”, “qo‘biz” so‘zlarning bir-biriga uzviyligini ta’kidlaydi[9].

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida adabiy aloqalar masalasi ma’lum ma’noda ishlanilganiga qaramasdan shu kungacha mumtoz poetika masalasining o‘rganilishi maxsus tadqiqot obyektiga aylanmagan, shuning uchun bu fikrni to‘liq milliy adabiyot doirasidagi bog‘lanishlarni o‘rganishga tegishli aytish mumkin. Bizda bu atamani qo‘llashda ham xatolikka yo‘l qo‘yilgan. Masalan, “Adabiyotshunoslik” atamalarining ruscha-qoraqalpoqcha izohli lug‘atida “adabiy” “ta’sirlar va aloqalar” berilgan[10]. Demak, adabiy aloqalarni o‘rganish maqsadida hozirgacha to‘plangan materiallar

asosida keng ko‘lamli izlanishlar olib borish adabiyotshunoslik ilmida yechilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlari o‘rtasidagi aloqalar ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, ikki xalqning ma’naviy va madaniy yaqinligini aks ettiradi. Mumtoz adabiyot namoyandalari ijodidagi mushtarakliklar, adabiy an’analarning davomiyligi hamda zamonaviy davrdagi tarjima va ilmiy hamkorliklar ushbu aloqalarning mustahkamligini ko‘rsatadi. Shu bois o‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarini tadqiq etish adabiyotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy davrdagi adabiy hamkorlik XX–XXI asrlarda qoraqalpoq va o‘zbek adabiy aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Adabiy asarlarning tarjima qilinishi, ilmiy tadqiqotlar, adabiy anjumanlar va madaniy tadbirlar ikki xalq adabiy yaqinligini yanada mustahkamladi.

Qoraqalpoq shoirlari asarlari o‘zbek tiliga, o‘zbek adiblari asarlari esa qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib, keng kitobxonlar ommasiga yetkazildi. Bu jarayon xalqlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqalarni yanada boyitdi.

Adabiy aloqalar nafaqat badiiy tajriba almashinuviga, balki milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va umuminsoniy g‘oyalarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi. O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotlari o‘rtasidagi mushtaraklik ikki xalqning do‘stligi va qardoshligini mustahkamlovchi muhim ma’naviy omildir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv sharoitida mazkur adabiy aloqalarni o‘rganish va rivojlantirish milliy madaniyatlarni asrash hamda yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Т.: Мумтоз сўз, 2020. – Б. 51.
2. Данилина Г.И. Сравнительное литературоведение. Хрестоматия. – Тюмень, 2011. – С. 134.
3. Қуромбоева Г. Ўзбек ва қорақалпоқ адабий алоқалари (адабий алоқа, ўзаро таъсир ва бадиий таржима). – Тошкент: Effect-D, 2022. – Б. 9.
4. Kaniyazova J. Qoraqalpoq, o‘zbek, qirg‘iz nasrida syujet va obrazlar tipologiyasi (Sh.Seytov, Sh.Xolmirzayev, Ch.Aytmatovlar nasri misolida): Filol. fan. d-ri. ... dis. – Nukus, 2025. – B. 13.
5. Байниязова Т. Қарақалпақ адебияттаныўының қалиплесиўи ҳам раўажланыў тенденциялары: Филол. фан. фалс (PhD). д-ри. ... дис. – Нукус, 2021. – Б. 35.
6. Кўрсатилган асар //http:// uzadab.ndpi.uz / adabiy_aloqalar.html>
7. Мамбетов К. Өзбек ҳам қарақалпақ адебий байланыслары. – Нөкис: Қарақалпақстан. 1992. – Б. 23.
8. Алишер Навоий. Садди Искандарий / МАТ. 11-жилд. – Т.: Фан, 1993. –Б. 727.
9. Мамбетов К. Өзбек ҳам қарақалпақ адебий байланыслары. – Нөкис: Қарақалпақстан. 1992. – Б. 23.
10. Ахмедов С. Есенов Ж, Жәримбетов Қ. Әдебияттаныў атамаларының орысша-қарақалпақша түсиндирме сөзлиги. – Нөкис: Билим, 1994. – Б. 123.